

## OILADA TARBIYANING O'RNI

**Xoziyeva Muazzam Toxirovna**

*Toshkent viloyati Parkent tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Yosh avlodni barkamol, sog'lom, vatan tuyg'usini xis qila oladigan shaxs qilib voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog'liqdir. Ushbu maqolada farzand tarbiyasida oilaviy muhit va ota-onaning o'rni haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** oila, tarbiya, farzand, axloq, ota-ona, guruh, ma'naviyat, jamiyat, bola, xato, mehr.

Oila jamiyat ijtimoiy tuzumining birlamchi bo'g'ini bo'lib, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila-murakkab ijtimoiy guruh. U biologik, ijtimoiy, axlociy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim.

Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlar ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, xususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi.

Oila tarbiyasi farzandning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin. O'z-o'zidan ravshanki, yuqorida zikr etilganidek, bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug'dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebahoe ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Demak, bola oilada jamiyatning, millatning qiyofasini ko'radi, shu muhitda uning tabiatini, dunyoqarashi va milliy axloqiy

qiyofasi shakllanadi hamda kamol topadi. Bola uchun oiladagi sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar manbaidir.

Oiladagi muhit ota-onada o‘z ma’suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo’ladi. Bolalarning odobli bo’lib ulg’ayishi uchun ota-onada bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-onada har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o’zaro munosabatida oljanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo’ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o’z odatlari bilan ba’zan o’zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo’pol munosabatlar, ko’p yolg’on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o’rin tutadi. Bola ota-onada tomonidan qo’pol, dag’al so’zlar eshitib, kaltak yeb katta bo’lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa o’z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Oilaning asosiy tayanchi bo’lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko’radi, o’zining bukilmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi.

Ota — oilaning boshlig’i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko’z ilg’amas nuqtalarini ilg’ay olish, oila a’zolariga faqat to’g’ri, haq yo’lni ko’rsatib turishdek insoniy mas’uliyat ota zimmasida turadi.

Ota oilada o’z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, o’zaro muomala madaniyatida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to’g’rilik va haqqoniylig, samimiylilik va xolislik yuzasidan namuna ko’rsatadi.

Murg’ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o’zbek pedagogi Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy guliston yoxud Axloq” kitobida quyidagi ibratli o’g’itlarni aytgan edi: “Tarbiyani tug’ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim”.

Oilada kattalarning obro’si qo’rqitish asosida emas, balki samimiylilik, o’zaro hurmat-ehtirom zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqidir. Oila a`zolarining inoqligi, o’zaro hamjihatligi, kiyinish madaniyati, mehnat faoliyati, o’zga kishilar to’g’risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlari bolaning murg’ak

tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi.

Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo’lib yetishishida muhim o’rin tutadi, bola dastlab oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo’lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog‘lom ijtimoiy ruxiy muhit, madaniy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, an`analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko’nikma va malakalar manbaidir. Bu oilaviy tarbiya jarayonida sayqallanib boradi.

Tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat bo’lib, tarbiyaning mazmuni, yo’nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog’liq.

Kishi shu munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi, tafakkuri orqali olamni anglaydi va o'zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruxida tarbiya

topadi, chunki oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruxiy olamiga, xissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi ma`naviy-ruxiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila a`zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va xissiyotlarini belgilab beradi. Demak oila sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda jamiyat oldida mas`uldir.

Oilada tarbiya topgan xar bir inson xar jixatdan umuminsoniy ahloqiy, ilmiy, e`tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko'rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishga urinishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo'ladi.

Oilada otaning bolalariga loqayd bo'lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo'ladi. Loqaydlik yomon illat bo'lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo'l ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o'rgatmagani oqibatida o'z farzandidan zarur ijobiy hislatlarni shakllantira olmaydi. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo'lib o'sadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o'smirlik payti bo'lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o'rganadi. Bu davrda farzand to'g'ri yo'lga solinsa, tarbiyali do'stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo'lib, yaxshi inson bo'lishi uchun muhim qadam qo'yiladi.

Odatda onalar o'z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo'l qo'ygan xatolari, qo'l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o'z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo'rmasdan qilaverishi mumkin.

Mehr-muhabbat berishda ham me'yorni saqlay bilish kerak. Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to'g'ri-noto'g'ri xatti-harakatlarini ma'qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo'lib o'sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo'yadi, mehr ko'rsatish esa uni yanada faol bo'lishga undaydi. Erka o'sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan, ma'suliylatsiz bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo'lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir.

Bolalik chog'ida farzandning qalbi o'ta yumshoq va ta'siriga beriluvchan bo'ladi. Shu bois diniy ta'limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko'ngli nozik bo'lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko'rsatishga chaqiriladi.

Ota-onalar bola tarbiyasi oson ish emasligini anglashlari kerak. Yoshlikdagi tarbiya bolaning kelajak hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bolalar tarbiyasiga mas’ul bo’lgan ota-onalar tarbiyaga qattiq e’tibor berishlari shart. O’z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog’atda o’tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko’radilar, dillari aslo jaroxat azobini sezmaydi, o’kinish hissiga duchor bo’lmaydilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Musurmonova. Oila ma’naviyati - milliy g`urur. -T ., 1999-y.
2. O.Hasanboeva va boshqalar. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007 yil.
3. A. Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O’qituvchi”. 1994
4. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro’ziyeva, M.H. Usmonboyeva. Pedagogika. T.: 2016.
5. M. Imamova. Oilada bolalarning ma’naviy axloqiy tarbiyasi. T., “O’qituvchi”. 1999.